

USMON AZIM SHE'RIYATIDA KONTRAST TASVIR

Matyakupov Sa'dulla¹
Musurmonova Zohira²

filologiya fanlari doktori, dotsent. sadulla.yoqub@gmail.com

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti.

E-mail: musurmonovazohira@gmail.com

Annotasiya. Maqolada zamonaviy she'riyatimizda kontrast tasvir masalasi U.Azim ijodi misolida tadqiq qilingan. Xususan, shoir ijodida badiiy kontrastni yuzaga keltirishda ranglar simbolikasi hamda poetikasi o'rganilgan. Shuningdek, tanlangan she'rlarda psixologik tasvirning o'ziga xosligi va uning ijtimoiy-psixologik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. She'riyat, ramz, kontrast, ranglar simbolikasi, grafika.

КОНТРАСТНЫЙ ОБРАЗ В ПОЭЗИИ УСМАНА АЗИМА

Аннотация. В статье рассматривается проблема контрастных образов в современной поэзии на примере творчества У.Азима. В частности, исследуется символика и поэтика цвета в создании художественного контраста в творчестве поэта. Также в выбранных стихотворениях подчеркивается своеобразие психологической образности, её социально-психологические основы.

Ключевые слова. Поэзия, символ, контраст, цветовая символика, графика.

Scientific supervisor: Matyakupov Sadulla

Annotation. This article examines the problem of contrasting images in contemporary poetry, using the work of U. Azim as an example. Specifically, it explores the symbolism and poetics of color in creating artistic contrast in the poet's

work. The selected poems also emphasize the uniqueness of psychological imagery and its socio-psychological foundations.

Keywords. Poetry, symbol, contrast, color symbolism, graphics.

Kirish (Introduction). O‘zbek she‘riyati o‘zining ko‘p asrlilik tarixiy taraqqiyoti davomida rang-barang badiiy tasvir va ifoda usullari orqali inson qalb haqiqatini badiiy talqin qilib keldi. Bu borada ijod ahli muayyan so‘z, obraz orqali unga yangidan yangi ma’nolar yuklagan holda olam va odam munosabatlarini badiiy tadqiq qiladi. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozi, individual ijodiy uslubiga ega shoirlardan Usmon Azim va Azim Suyun she‘riyatida kontrast tasvirlar orqali inson umri mohiyati, ma’naviy-axloqiy muammolari turli shakllarda ifoda qilinadi. Ayni shu xususiyatlari bilan har ikki shoir ijodi o‘zaro mushtaraklik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida lirik tur va uning janrlari, shuningdek, she‘riyat spesifikasi, undagi tasvir usullari borasida bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Shular adabiyotda kontrast tasvir va uning badiiy funksiyasi masalasidagi nazariy talqinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ulardan ma’lumki, kontrast atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “Kontrast (fr. contranste – keskin qarama qarshi qo‘yish) – degan ma’noni anglatadi. Badiiy adabiyot va san’atning boshqa turlarida tasvirlanayotgan narsa hodisalarni bir-biriga keskin qarshi qo‘yishga qaratilgan usul. Ushbu atama tasvirlanayotgan narsani bo‘rttirib, qabartirib ko‘rsatish imkoni beradi, badiiy usul sifatida qadimdan qo‘llanib keladi. Kontrast badiiy asarning barcha sathlarida namoyon bo‘lishi, unda zidlash oshkora yoki pinhona amalga oshirilishi mumkin” [8.143]. Bundan tashqari, adabiyotshunos olim T.Boboyevning tadqiqotlarida “Ko‘chimlarning bu guruhiga ikki qarama-qarshi tushunchali so‘zlarni yonma-yon keltirish yoxud “qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida, bilib bilmaslikka olish tamoyillariga amal qilib yaratilgan qochiriqlar, kesatishlar, pichinglar kiradi. Kinoya, antifraz, sarkazm, oksimoron zidlov ko‘chimlarining ko‘p ishlatiladigan turlaridandir” [2.350] – deya e’tirof etiladi. Ko‘rinadiki, kontrast tasvir adabiyotning

barcha tur va janrlari, xususan, she'riyatda alohida ahamiyatga ega bo'lib unda hissiyot va kechinmalarni, turli holat, vaziyat yoki oddiy predmet yoki ranglarni o'zaro qarama-qarshi qo'yish orqali obrazli ifodalar yaratish maqsad qilinadi. Zero, har bir badiiy asar, xususan, she'riyatda bizni qurshagan olam va jamiyat, inson qalb kechinmalari turli she'riy shakllar va tasvirlarda aks ettiriladi. Tabiiyki, hayot ziddiyatlardan holi emas. Hatto, insonning yurak va ko'ngil ziddiyatlari ham ba'zan o'zi bilan o'zi kurashishga sabab bo'ladi. Ijodkor esa shu kabi holatlarda hayot jumboqlariga javob izlaydi. Professor B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek: "Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilishi oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir xilqat, yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma'naviy dunyosini boyitadi, ruhini bardam qiladi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida obyektiv asos, oddiyroq, qilib aytganda, xamirturush kerak. Ikkinchidan, tanlangan hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohishi va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog'liq holda kechadi" [4.13]. Shunday ekan shoirlar ham inson kechinmalarini kontrast ifodalashning turli shakllarini vujudga keltirmoqda. Badiiy tasvirning ushbu usuli tarixiy an'anaga ega bo'lib, xususan, folklor va mumtoz adabiyotda folklorshunoslikda do'zax va jannat, Odam Ato va shayton yoki turli predmetlar orqali badiiy talqin etib kelingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy she'riyatimizda Usmon Azim kabi iste'dodli shoirlar ijodi alohida o'rin tutadi. Ular o'z ijodida lirik turning keng imkoniyatlaridan mohirona foydalangan holda mavjud adabiy an'analarga yangiliklar baxsh etayotganligini e'tirof etish mumkin. Zero, O'zbekiston Xalq shoiri E.Vohidov ta'kidlaganidek: "She'riyatning mavzulari, ohanglari, ifoda uslublari har davrda o'ziga xos o'zgacha bo'ladi. Lekin hamisha bir narsa ustuvor: she'riyat inson qalbining holati ekani, uning quvonchi, muhabbati, nafrati, sog'inchi ekani – abadiy" [6.15]. Shu ma'noda, Usmon Azimning she'rlarida muayyan davr, zamon va makonda insonlarning ruhiyati, qalb haqiqatini real ifodalashda badiiy kontrastdan

samarali foydalanadi. Xususan, shoirning “Grafika” she’ri o‘zbek she’riyatida kontrast tasvirning yaqqol namunasi bo‘lib, lirik “MEN” ranglarda aks ettiriladi.

Ko‘zing qaro sening, qoshlaring qaro,
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.
Qo‘lingdagi ta’na toshlaring qaro,
Menga g‘amgin boqib turishlaring oq [1.86].

Mazkur satrlarda mumtoz she’riyat an’analari kabi yor go‘zalligi ta’riflanayotgandek tuyulsa-da, shoir unga juda katta falsafiy ma’no yuklaydi. Mazkur ma’no-mohiyatni anglashda banddagi “kulishlaring oq”, “ta’na toshlaring qaro”, “g‘amgin boqib turishlaring oq” ifodalari “kalit” vazifasini bajaradi. Qarangki, she’rda shoir qo‘llagan kontrast tasvir kitobxonni o‘yga toldiradi, so‘zlar ma’nosini chuqurroq his etishga undaydi, har bir satrda sodir bo‘layotgan ranglardagi o‘zaro ziddlik orqali ruhiy holat, vaziyat va uning sabablari xususida mulohaza qilishga da’vat etadi.

Lirik qahramon holatini ifodalashda shoir nima sababdan aynan “oq” va “qora” rangni tanladi, axir boshqa qancha-qancha jilolar bilan ham aks ettirishi mumkin edi-ku?! Bu borada ijodkor she’rni nomlashda ham oq va qora ranglar mohiyati, ulardagi an’anaviy falsafiy mazmunlarga jiddiy e’tibor qaratgan deyish mumkin. “Grafika so‘zining ma’nosi – bo‘yoq ishlatmasdan, chiziq va shtrixlar vositasi bilangina narsalarni tasvirlash san’ati; shu usulda ishlangan rasm, tasvir demakdir” [9.1].

Ko‘rinadiki, oq va qorada tabiiylik, ustvorlik kasb etadi. Vaholanki, qadimda qora rang oqning ziddi o‘laroq, kuch-qudrat, jasorat, yoshlik ma’nolarida istifoda qilingan. Rus olimi A.Kononov tadqiqotlarida “Qora so‘zining “katta”, “yirik”, “muhtasham”, “ulug‘”, “qudratli”, “kuchli”, “pokiza”, “musaffo”, “quruqlik”, “yer”, “zulmat ko‘ki”, “shimol” kabi mazmunlar ifodalanganligini ko‘plab misollar vositasida izohlab bergan” [3.162]. Agar qora so‘zini (rang fonida) kuchli va qudratli ma’nosida olsak, “ta’na toshlaring qaro”ligi nihoyatda katta zalvorli ekanligi hamda uning estetik mohiyati naqadar teranligini lirik qahramon misolida anglaymiz.

Keyingi satrda yorning “g‘amgin boqib turishlari oq”ligi ta’riflanadiki, bu o‘z navbatida oq rangning poklik, ezgulik ramzi ekanligidan kelib chiqadi. Lekin nega g‘am va oq leksemalari birga qo‘llanilgan. Ma’lumki, oq rang Sharq o‘lkalarida motam ramzi sifatida ham tushuniladi. Tadqiqotchi D.Sharipova ilmiy izlanishlarida “Ozarbayjon olimi M.Saidov tadqiqotlarida “Oltayliklarda oq rang motam ramzidir. Manbalar Chinda yashagan turk tilli solorlar uchun oq rangning boshqa ma’nolar bilan bir qatorda, motam timsoli bo‘lganligidan ham xabar beradilar. Faqat turkiylarda emas, boshqa ayrim xalqlarda ham ko‘k va oq motam, qayg‘u ramzi sanalgan” [5.235] – deya ta’kidlanadi. Demak, ushbu tasviriy ifoda yor muhabbati pokligi va samimiyatidan tashqari mavjud holatda imkonsiz va ilojsizligini anglatadi. She’rdagi kontrast tasvir umumiy mohiyatida muhabbatning kuchli iztirobidan ikki oshiq ham g‘am-anduh chekayotganligi o‘z aksini topadi.

Unutishing – qaro, hijroning qaro,

Sog‘inching oppoqdir, xatlaring – oppoq.

Qarodir yurganing o‘ch-mehr aro,

Menga tashlab ketgan dardlaring – oppoq [1.86].

Ikkinchi bandning birinchi misrasida unutish qanchalik mashaqqatli va azobli ekanini, oshiq uchun hijron bu eng og‘ir jazo, undan ortig‘i bo‘lmasligini tan olish qora rang orqali ifoda qilinadi. Keyingi misralarda sog‘inch va xatning oq rangga o‘xshatilganligi e’tiborni tortadi. Chunki sog‘inch oshiq uchun bu eng nozik tuyg‘u bo‘lib, u shuning uchungina hayotda qola oladi. Xatning oqligi – unga hech narsa yozilmaganligini anglatadi. Unda yor oshiqqa bir so‘z demasdan, uning qalbida g‘am urug‘larini ekyapti. Asl ma’no oshiq barcha qiynoqlarga qaramasdan yor sog‘inchi va undan ilinj qilingan xatlarni kutishi, o‘z hayotining mazmuniga aylangan. Bevafoing xoh “o‘ch”, xoh “mehr aro yurgani” oshiqning yuragiga o‘t solgani uchun u yurgan yo‘llar doimo qaro zulmat, ammo shu qora zulmatdagi dardlar oshiq inson uchun hayot mazmunidir.

Shommi, yo saharmi – vaqtimdir qaro,

Sen deb to‘kayotgan yoshlarim oppoq.

Sening ham, mening ham baxtimdir qaro,

O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring oppoq [1.86].

Keyingi bandda ham qora va oq ranglar orqali muhabbat tasviri davom etadi. Ularda falsafiy fikrlar shunchalik teranki, uning hayoti faqat qora tundan iboratligi, shomi ham, sahari ham qora ekani lirik qahramonning nihoyatda kuchli iztirobdan vaqtning ham farqiga bormayotganligini asoslaydi. Mazkur satrlardagi kontrast tasvirda ikki rangning qanchalik ma'no kasb etayotgani, shubhasiz, shoirning yuksak badiiy mahorat sohibi ekanligini ko'rsatadi.

Ishon, yurak oqdir, qarodir taqdir,

Oq-qora bo'yoqlar bizning bog'larda...

Men milyon bo'yoqni bilardim, axir,

Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda [1.86].

She'ning oxirgi bandning birinchi misrasida uning falsafiy cho'qqisi bo'lib, bu orqali insoniylik mohiyati yuzasidan xulosa yangraydi. Yurak ya'ni inson qalbi tabiatan pok, ezgu, lekin qismat doimo ikki qalb uchun hayot sinovi qora – og'ir ekanligini bildiradi. Oxirgi misralarda lirik qahramon va uning ruhiy holati o'zining yanada yorqin ifodasini topadi. Muhabbatning iztirobli xotirasini boshidan kechirayotgan lirik qahramon ma'shuqa bilan birga o'tgan baxtli kunlarini eslaydi va o'sha damlarda "Men million bo'yoqni bilardim, axir, Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda" deya xotimalaydi.

Adabiyotshunos olim va shoir Ulug'bek Hamdam ta'kidlaydiki: "She'riyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning ruhiy mohiyatidan ibtido oladi. Shu ma'noda odamzodning hozirgi holga kelishi, ya'ni insonning insonga aylanishi faqat tashqi omil – tashqi shart-sharoitlargagina bog'liq jarayon bo'lmay, ayni paytda, ichki omil – insonning zoti bilan, undagi ruhiy mohiyatning ijtimoiylik shaklida namoyon bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Ya'ni ijtimoiylik tashqaridan yopishtirilgan yorliq emas, balki insonning fitriy o'zagida mavjud mohiyat bo'lib, uning uzoq evolyusion yo'lni bosib o'tishi natijasida bashariyat bugungi tamaddunni qo'lga kiritdi. She'riyat esa ana shu mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridan biridir" [7.14].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ko‘rinadiki, Usmon Azimning “Grafika” she’ri adabiyotda kontrast tasvirda ranglar simbolikasi mohiyatini yaqqol namoyon etadi. She’r boshidan oxirigacha ikki rang qarama-qarshiligi orqali inson umri mohiyatini tushunish va tushuntirishga bag‘ishlangan. Kuzatilganidek, bir butun she’r ikki rang ziddiyati munosabatida o‘ziga xos ohangdorlik va falsafiy mazmun kasb etgan. Zero, adabiyot hayotning aksi ekan, unda o‘zaro zid va qarama-qarshi tushunchalar, ijod namunalari mazmun-mohiyatini kengroq anglashni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azimov U. Saylanma: She’rlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1995.
2. Boboev T. Adabiyotunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
3. Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // Тюркологический сборник. – Москва, 1978.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
5. Sharipova D. Ramz va metofozalarning o‘zaro munosabati // So‘z san’ati. – Toshkent, 2020. - № 6.
6. Erkin Vohidov. Shoiru she’r-u shuur. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
7. Xamdamiyov U. XX asr o‘zbek she’riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Filol.fan.dokt... diss (DSc)... avtoref. – Toshkent, 2017.
8. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademiynashr, 2010.
9. <https://izoh.uz>